



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOJXONA ORGANI XODIMLARI SALOHİYATINI OSHIRISHDA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH MEKANİZMINI TAKOMILLASHTIRISH

M. Abduvoxidov

Bojxona qo‘mitasi Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish boshqarmasining, Inson resurslarini rivojlantirish
bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

Аннотация:

Ушбу мақолада боғхона органлари ходимларининг касбий салоҳиятини оширишда қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизимини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Шунингдек, замонавий таълим технологиялари, рақамлаштириш, компетенциявий ёндашув ва халқаро тажрибалар асосида малака ошириш механизмларини ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: боғхона органлари, кадрлар сиёсати, малака ошириш, қайта тайёрлаш, компетенция, рақамли технологиялар, касбий ривожланиш, хизмат самарадорлиги.

Аннотация:

В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования системы переподготовки и повышения квалификации в целях развития профессионального потенциала сотрудников таможенных органов. Также разработаны предложения по развитию механизмов повышения квалификации на основе



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

современных образовательных технологий, цифровизации, компетентностного подхода и международного опыта.

Ключевые слова: таможенные органы, кадровая политика, повышение квалификации, переподготовка, компетенция, цифровые технологии, профессиональное развитие, эффективность службы.

Abstract:

This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving the system of retraining and professional development aimed at enhancing the professional potential of customs officers. It also develops proposals for improving qualification enhancement mechanisms based on modern educational technologies, digitalization, a competency-based approach, and international experience.

Keywords: customs authorities, personnel policy, professional development, retraining, competence, digital technologies, professional development, service efficiency.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosidagi tub o'zgarishlar - global iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda bojxona sohasida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bojxona organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Shu munosabat bilan kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini muntazam oshirish tizimini takomillashtirish davlat boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bu borada mamlakatimizda “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3] va “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida ham kadrlar bilan ishlashning zamonaviy usul va mexanizmlari hamda yaxlit tizimini joriy etish, davlat organlarida salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Ta’kidlash joizki bojxona organlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishlarining oldini olishda muhim vazifalarni bajaradi[1]. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentligi yuqori bo‘lgan kadrlarga bog‘liq.

Shu o‘rinda xorijiy olimlarning inson kapitalini rivojlantirishga oid qarashlariga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. Jumladan, inson kapitalini rivojlantirish nazariyasining asoschilaridan biri Gary Becker ta’kidlashicha, xodimlarning bilim va ko‘nikmalariga kiritilgan investitsiyalar tashkilot samaradorligini oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirishga yo‘naltirilgan xarajatlar iste’mol emas, balki kelajakda yuqori iqtisodiy samara beradigan investitsiyadir. Mazkur yondashuv bojxona organlari xodimlarining kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Amerikalik olim Peter Senge o‘zining The Fifth Discipline asarida "o‘rganuvchi tashkilot" (Learning Organization) konsepsiyasini ilgari suradi. Olimning fikricha, har qanday davlat tashkiloti o‘z faoliyatini doimiy o‘qitish va bilimlarni yangilash asosida tashkil etgandagina o‘zgaruvchan muhitga moslasha oladi. Bu g‘oya bojxona organlarida uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etishning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bizning fikrimizcha har qaysi sohada inson resurslarini boshqarishda ularni inson kapitaligacha rivojlantirishda eng muhim vosita xodimlarining kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirishni taqozo etishi muhimdir.

Bu borada tizimga yuqori salohiyat, yetakchilik qobiliyati va boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lgan tashabbuskor xodimlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bojxona organlarida malaka oshirish tizimi xodimlarning kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va boshqaruv kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Biroq, bojxona organlari tizimida xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda amaliyotda ta‘lim dasturlarining ayrim hollarda nazariy yo‘nalishda tashkil etilishi bilan bir qatorda zamon talablariga mos bo‘lgan innovatsion o‘qitish usullaridan to‘liq foydalanishni, xodimlarni malaka oshirish va qayta tayyorlash borasida kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv dasturlarini qayta ishlab chiqishni hamda baholash mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-122–son qaroriga[4] asosan aynan bojxona tizimiga salohiyatli kadrlarni tayyorlash borasida bir qator vazifalar belgilangan (1-rasm).



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir lavozim uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar aniq belgilanib, o'quv dasturlari aynan shu talablar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malaka oshirish jarayoni samaradorligini yanada oshiradi. Masofaviy ta'lim platformalari, elektron kurslar, vebinarlar, virtual simulyatorlar va interaktiv keyslar xodimlarni ishdan ajralmagan holda muntazam o'qitish imkonini beradi. Bu esa vaqt va moliyaviy resurslarni tejash bilan birga ta'lim sifatini ham oshiradi.

Bojxona organlari uchun Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Bojxona qo'mitasining oliy ta'lim muassasasida va O'zbekiston Respublikasining boshqa ta'lim muassasalarida, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida amalga oshirilish

Xizmatga birinchi marta qabul qilingan fuqarolar (Bojxona qo'mitasining oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari bundan mustasno) **majburiy tartibda boshlang'ich kasbiy tayyorgarlikdan o'tishi**

Xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida o'qish uchun tanlov o'tkazish tartibi va shartlari **Bojxona qo'mitasining raisi** tomonidan belgilanadi.

Xodimlarning **Bojxona qo'mitasining** ta'lim muassasalarida va **Milliy kinologiya markazida** malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayoni belgilangan tartibda **tasdiqlanadigan dasturlar asosida** amalga oshirish.

1-расм. Божхона органлари тизимида ходимлар қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга оид муҳим вазифалар



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bojxona sohasida xavflarni boshqarish, raqamli deklaratsiyalash, elektron bojxona xizmatlari, sun'iy intellekt elementlari va katta ma'lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalarning joriy etilishi o'quv dasturlarini ham muntazam yangilab borishni talab qiladi. Shu bois, o'quv rejaları amaliyot ehtiyojlariga mos ravishda doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur.

Malaka oshirish tizimining yana bir muhim yo'nalishi - xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir. Xorijiy davlatlar bojxona xizmatlari, xalqaro tashkilotlar va ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bilan tajriba almashish, qo'shma seminarlar va stajirovkalar tashkil etish xodimlarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda XXR, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi hamda Markaziy Osiyo davlatlari bojxona organlari tizimlari bilan xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular bilan xodimlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bir qator hamkorlik memorandumlari imzolangan.

Bojxona institutida 2025-2026 o'quv yili davomida 20 nafar kursantlar hamda 7 nafar professor-o'qituvchilar XXR Shanxay bojxona kollejida hamkorlik memorandumlari asosida malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Bu esa albatta tizimga professional va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetida 2023-2025-yillar davomida tashkil etilgan o'quv kurslari va tinglovchilar haqida ma'lumotlar keltirilgan (2-rasm).




International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>



2-rasm. Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetida 2023-2025-yillar davomida tashkil etilgan o‘quv kurslar tahlili

Shuningdek, o‘qitish natijalarini baholashning samarali mexanizmini joriy etish lozim. Faqat sertifikat berish bilan cheklanmasdan, malaka oshirishdan keyin xodimning xizmat faoliyatidagi natijalari, qaror qabul qilish sifati, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va xizmat samaradorligi muntazam monitoring qilinishi maqsadga muvofiq.

Taklif va xulosalar

Bojxona organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv dasturlarini qayta ishlab chiqish;
individual kasbiy rivojlanish rejalarini joriy etish;
elektron ta’lim va gibrid o‘qitish modellarini keng qo‘llash;
amaliy mashg‘ulotlar va keys-stadi usullari ulushini oshirish;
sun’iy intellekt va raqamli bojxona texnologiyalari bo‘yicha maxsus kurslarni ilhor xalqaro tajribalar asosida tashkil etish;
xalqaro malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;
o‘quv natijalarini KPI va kompetensiyalar asosida baholash tizimini yanada takomillashtirish;
malaka oshirish natijalarini xizmat pog‘onasida o‘shish va rag‘batlantirish tizimi bilan integratsiya qilish va rezervlarni shakllantirish.
Bojxona organlari faoliyati samaradorligi, eng avvalo, inson kapitali sifatiga bog‘liq. Shuning uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish davlat boshqaruvining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim texnologiyalari, xalqaro tajribalar va natijaga yo‘naltirilgan baholash mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirish bojxona organlari xodimlarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishga, xizmat samaradorligini oshirishga hamda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil 22-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi 2018-yil 18-oktyabrdagi O‘RQ-502-son Qonuni.
4. tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-21-sonli Farmoni. 2026-yil 16-fevral.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son Farmoni. 2025-yil 19-iyun.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-122 –son qarori. 2025-yil 25-fevral.
8. <https://lex.uz/docs/8050769>.